



ADABIYOTDA INKOR POETIKASINING NAZARIY ASOSLARI

NISHONOVA XURSHIDA YUSUFJANOVNA

*O'zbekiston Fanlar Akademiyasi,
O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti,
tayanch doktorant*

Annotatsiya. Mazkur maqolada adabiyotda inkor poetikasining nazariy asoslari tahlil qilinadi. Inkor poetikasining mohiyati, uning badiiy tafakkur taraqqiyotidagi o'rni hamda modernizm va postmodernizm estetikasidagi namoyon bo'lish shakllari yoritiladi. Tadqiqotda dialogizm, intertekstuallik, dekonstruksiya kabi nazariy konsepsiyalar asosida inkor poetikasining badiiy matndagi funksional xususiyatlari ochib beriladi. Shuningdek, inkor poetikasining o'zbek adabiyotidagi ko'rinishlari ham ilmiy jihatdan baholanadi. Tadqiqot natijasida inkor poetikasi adabiy jarayonning yangilanishiga xizmat qiluvchi muhim estetik hodisa ekanligi asoslanadi.

Kalit so'zlar: inkor poetikasi, dialogizm, intertekstuallik, dekonstruksiya, modernizm, postmodernizm, polifoniya, badiiy matn, poetika, estetik inkor.

Badiiy adabiyot taraqqiyoti davomida estetik tafakkur doimo yangilanish va qarama-qarshiliklar asosida rivojlanib kelgan. Har bir yangi adabiy yo'nalish yoki poetik tizim o'zidan avvalgi badiiy qarashlarni inkor etish, qayta baholash yoki yangicha estetik mezonlar asosida talqin qilish orqali shakllangan. Shu ma'noda inkor hodisasi adabiy jarayonning ichki harakatlantiruvchi kuchlaridan biri hisoblanadi. Zamonaviy adabiyotshunoslikda "inkor poetikasi" atamasi aynan badiiy matndagi rad etish, qarama-qarshi qo'yish, mavjud estetik me'yorlarni buzish hamda yangi poetik shakllarni yuzaga keltirish tamoyillarini ifodalovchi nazariy tushuncha sifatida qo'llaniladi [1.15].



“Inkor poetikasi” tushunchasi falsafadagi dialektik inkor nazariyasi bilan chambarchas bog‘liqdir. Dialektik qarashlarga ko‘ra, taraqqiyot eski shaklning inkori orqali yuz beradi. Shu bois adabiyotda ham yangi estetik qarashlar avvalgi poetik tizimni inkor etish natijasida shakllanadi. Bu inkor oddiy rad etish emas, balki yangilanish va qayta qurish xarakteriga ega bo‘ladi [2.112]. Adabiy matnda inkor turli shakllarda syujetni buzish, an’anaviy qahramon modelidan voz kechish, ironiya, parodiya, grotesk, absurd yoki fragmentarlik orqali namoyon bo‘lishi mumkin.

Inkor poetikasi, avvalo, modernizm va postmodernizm davrida alohida poetik hodisa sifatida shakllandi. XX asr boshlarida yuzaga kelgan modernistik adabiyot realizmning qat’iy tasvir tamoyillarini inkor etdi. Inson ruhiyatining ichki murakkabligi, ong oqimi, subyektiv idrok, parchalangan tafakkur kabi tushunchalar modernistik poetikaning asosiga aylandi [3.45]. Keyinchalik postmodernizm esa modernizmning o‘zini ham inkor qilib, matndagi markaziy ma’no, muallif ustuvorligi va yagona haqiqat konsepsiyalarini rad etdi [4.78-80].

Adabiyotshunoslikda inkor poetikasining nazariy asoslari bir necha ilmiy yo‘nalishlar bilan bog‘liq holda shakllangan. Xususan, strukturalizm, poststrukturalizm, dekonstruksiya, dialogizm va intertekstuallik nazariyalari ushbu poetik hodisani ilmiy jihatdan tushuntirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Inkor poetikasining falsafiy asoslari. Inkor poetikasining falsafiy ildizlarini tushunish uchun, avvalo, dialektik tafakkurning rivojlanish bosqichlariga nazar solish zarur. Qadimgi yunon falsafasida inkor tushunchasi birinchi marta eleatlarning “bir” va “ko‘p” munosabati doirasida muhokama qilingan bo‘lsa, Platon dialoglarida antiteza orqali haqiqatni izlash usuli sifatida inkor qo‘llanilgan. Biroq inkorning haqiqiy falsafiy asoslari Georg Vilgelm Fridrix Hegel nomi bilan bog‘liq. Hegel dialektikasining asosiy formulasi tezis, antitezis va sintez inkorning mantiqiy asosini tashkil qiladi. Hegelga ko‘ra, har qanday hodisa o‘z ichida o‘zining



ziddiyatini, ya'ni inkorini saqlaydi va taraqqiyot aynan shu qarama-qarshilikning yechimi orqali yuz beradi [5.205-210].

Hegel inkor tushunchasini oddiy rad etish darajasidan ko'tarib, uni "aniq inkor" (bestimmte Negation) darajasiga olib chiqdi. Aniq inkor, avvalgi shaklni butunlay yo'q qilish emas, balki uni saqlab qolgan holda yangi darajaga ko'tarish demakdir. Bu konsepsiya keyinchalik Karl Marks va Fridrix Engels tomonidan iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyot qonuniyatlarini tushuntirishda qo'llanilgan bo'lsa, adabiyotshunoslikda badiiy shakllarning rivojlanishini izohlashga xizmat qilgan [6.88-90]. Masalan, romantizm klassitsizmni inkor etgan holda uning ayrim elementlarini o'zgartirilgan shaklda saqlab qolgan; realizm romantizmni inkor etgan holda uning subyektivlik kashfiyotini o'zida mujassamlashtirgan.

Fridrix Nitsche falsafasi inkor poetikasi uchun alohida ahamiyatga ega. Nitsshening "Xudo o'ldi" deklaratsiyasi, "qadriyatlarning qayta baholanishi" va "haqiqatga iroda" kabi tushunchalari zamonaviy adabiyotda an'anaviy axloqiy va estetik mezonlarni inkor etishga yo'l ochdi. Nitsche ta'kidlaganidek, har qanday ijod bu avvalgi qadriyatlarni yo'q qilish va yangilarini yaratishdir [7.45]. Bu fikr keyinchalik postmodernizm da asosiy tamoyilga aylandi — haqiqat nisbiy, ma'nolar beqaror, qadriyatlar esa ijtimoiy tuzilmalarning mahsuli ekanligi haqidagi qarash XX asr adabiyotida keng tarqaldi [8.23].

Dialogizm va polifoniya nazariyasida inkor masalasi. Inkor poetikasining muhim nazariy asoslaridan biri rus olimi Mixail Baxtin tomonidan ishlab chiqilgan dialogizm nazariyasidir. Baxtin badiiy matnni bir-biri bilan bahsga kirishuvchi ko'p ovozlarni tizimi sifatida talqin qiladi. Uning fikricha, haqiqiy badiiy matn monologik emas, balki dialogik xarakterga ega bo'ladi. Har bir ovoz boshqa bir ovoz bilan munosabatga kirishadi, uni tasdiqlaydi yoki inkor etadi [9.86-90].

Baxtin ayniqsa Fyodor Dostoyevskiy romanlarini tahlil qilish jarayonida "polifonik roman" tushunchasini ilmiy muomalaga kiritadi. Dostoyevskiyning badiiy dunyosining o'ziga xosligi shundaki, unda muallif qahramonlar ustidan



hukmronlik qilmaydi; aksincha, qahramonlar mustaqil ovozlar sifatida muallif bilan teng huquqli muloqotga kirishadi. Polifonik romanda muallif yagona haqiqatni ilgari surmaydi; aksincha, turli qarashlar o'rtasidagi ichki ziddiyatni saqlab qoladi [9.92-95]. Shu jihatdan polifoniya inkor poetikasining badiiy ko'rinishlaridan biri sifatida namoyon bo'ladi. Chunki har bir qahramon boshqa bir mafkuraviy qarashni rad etuvchi mustaqil ovoz sifatida maydonga chiqadi.

Baxtinning ta'kidlashicha, Dostoyevskiy romanlarining tuzilishi dialog asosida qurilgan. Bu yerda muallif yoki hikoyachi qahramonlarni tavsiflamaydi, balki qahramonlarning o'z so'zlarida qurilgan dialoglar orqali ular o'zlariga, muallifga, boshqa qahramonlarga va potensial tinglovchiga murojaat qiladilar. Muallif bu dialoglar ustidan hukmronlik qilmaydi u qahramonlar bilan teng huquqli pozitsiyada turadi [9.110].

Dialogizm nazariyasiga ko'ra, har qanday matn o'zidan oldingi matnlar bilan yashirin yoki oshkora muloqotga kirishadi. Bu jarayonda avvalgi estetik qarashlar inkor qilinishi, qayta talqin etilishi yoki parodiyalashishi mumkin. Ayniqsa, satira va parodiya janrlarida inkor poetikasi yaqqol namoyon bo'ladi. Parodiya mavjud uslub yoki estetik qarashni takrorlagan holda uni kulgili va zaif ko'rsatish orqali inkor etadi [10.67]. Bu yerda ikki tomonlama harakat sodir bo'ladi: bir tomondan, parodiya qilinayotgan matn "iqtibos" sifatida yangi matn ichida yashaydi, ikkinchi tomondan, unga masofali, ironik munosabat shakllanadi.

Baxtin qarashlarida karnaval madaniyati ham inkor poetikasi bilan bog'liq hodisa sifatida talqin qilinadi. Karnaval jarayonida rasmiy tartiblar vaqtincha buziladi, ijtimoiy tabaqalar o'rtasidagi farqlar yo'qoladi, yuqori qadriyatlar kulgi obyektiga aylantiriladi [11.78]. Karnavualesklashuv (karnavalizatsiya) adabiyotda an'anaviy ierarxiyalarni buzish, rasmiy til va mafkuralarni inkor etish usuli sifatida namoyon bo'ladi.

Intertekstuallik va poetik negatsiya. XX asr adabiyotshunosligida inkor poetikasining rivojlanishida intertekstuallik nazariyasi muhim o'rin tutadi. Ushbu



nazariya fransuz olimasi Yuliya Kristeva tomonidan shakllantirilgan bo‘lib, unga ko‘ra har qanday matn boshqa matnlarning kesishgan nuqtasi hisoblanadi. Yangi matn avvalgi matnlarni o‘zlashtirish, o‘zgartirish yoki inkor etish asosida yuzaga keladi [12.80-83]. Kristeva Baxtinning dialogizm tushunchasini rivojlantirgan holda intertekstuallik atamasini kiritdi va uni baxtinchilik dialogizmning hosilasi sifatida taqdim etdi.

Kristevaning intertekstuallik kontsepsiyasi bo‘yicha matn — bu “iqtiboslar mozaikasi”dir. Har qanday matn boshqa matnlarning o‘zgarishi va o‘zlashtirilishi natijasida vujudga keladi [12.88-90]. Shu sababli badiiy asarda mutlaq yangilik emas, balki mavjud matnlarning qayta talqini yuz beradi. Bu qayta talqin jarayonining o‘zi esa inkorning bir ko‘rinishidir — chunki muallif avvalgi matnni o‘zgartirar ekan, uning dastlabki ma’nosini inkor qiladi yoki unga yangicha ma’no yuklaydi. Intertekstuallik jarayonida inkor poetikasi ayniqsa parodiya, travestiya, sitata va alluziya shakllarida namoyon bo‘ladi [13.45-48].

Postmodernistik adabiyotda intertekstuallik keng qo‘llaniladi. Bu davr adabiyotida tarixiy, diniy yoki klassik matnlar qayta yoziladi, ular ustidan ironik munosabat shakllantiriladi. Natijada matnning an’anaviy ma’nosi parchalanadi. Masalan, Jeyms Joysning “Uliss” asari Gomerning “Odisseya” dostonining XX asrdagi dekonstruksiyasidir. Joys antik davr qahramonlarining sarguzashtlarini zamonaviy Dublin shahrining oddiy bir kuniga ko‘chiradi va bu orqali qahramonlik, jasurlik, sadoqat kabi an’anaviy tushunchalarni inkor etadi yoki ularga zamonaviy, oddiy ma’no beradi [14.112-115].

Kristevaning negativlik haqidagi qarashlari inkor poetikasini yanada chuqurroq anglashga yordam beradi. Uning estetikasida negativlik ikki registrda namoyon bo‘ladi: semiotik negativlik va tetik negativlik. Semiotik negativlik tana harakatlari, uzilishlar va drayvlarning ambivalent tabiati bilan bog‘liq bo‘lib, u subyekt tilni o‘zlashtirishdan oldin ham mavjuddir. Tetik negativlik esa subyektga ma’no tizimini egallash imkonini beradi [15.56-60]. Badiiy amaliyotlar tetik negativlik ishlab



chiqargan nutq shakliga taqlid qiladi va semiotik negativlik izi sifatida ijtimoiy-lingvistik tuzilmada mavjud bo‘lgan “ortiqchalik”ni ochib beradi.

Intertekstuallik nazariyasi badiiy matndagi ma’no qatlamlarining cheksizligini ko‘rsatadi. Matn hech qachon yakuniy ma’noga ega bo‘lmaydi. Har bir yangi o‘qish avvalgi talqinni inkor etuvchi yangi ma’no yuzaga keltiradi [16.34-36]. Shu jihatdan inkor poetikasi matnning ochiq tizim ekanligini namoyon qiladi.

Dekonstruksiya va matnning o‘zini inkor etishi. Inkor poetikasining eng murakkab va ta’sirchan nazariy asoslaridan biri fransuz faylasufi Jak Derrida tomonidan yaratilgan dekonstruksiya nazariyasidir. Derridaning dekonstruksiya deb nom olgan yondashuvi adabiyot, falsafa, huquq, arxitektura va boshqa ko‘plab sohalarga chuqur ta’sir ko‘rsatdi. Dekonstruksiya markazlashgan ma’no va qat’iy mantiqiy tizimlarni rad etadi. Derrida fikricha, har qanday matn ichida o‘z-o‘zini inkor qiluvchi unsurlar mavjud bo‘ladi [17.24-26].

Dekonstruksiya nazariyasida “markaz” tushunchasi muhim ahamiyatga ega. An’anaviy tafakkur har qanday tizimda barqaror markaz mavjud deb hisoblaydi. Derrida esa bu qarashni inkor qiladi. Uning ta’kidlashicha, matnda ma’no doimo surilib boradi va hech qachon qat’iy shaklda mavjud bo‘lmaydi [17.48-50]. Har qanday matn markazsizdir, uning ma’nolari doimo boshqa ma’nolarga havola etiladi. Derrida Sossyurning lingvistik belgining ixtiyoriy va an’anaviy ekanligi haqidagi farazini qabul qiladi, ammo belgi va belgilangan o‘rtasidagi munosabatning barqarorligiga shubha qiladi.

Derridaning “difference” (farqlash) tushunchasi uning inkor poetikasiga qo‘shgan eng muhim hissalaridan biridir. Ushbu atama fransuz tilidagi “difference” (farq) va “differer” (kechiktirish, surish) so‘zlarining o‘yiniga asoslangan. Difference ikki ma’noni anglatadi: birinchidan, ma’nolar o‘zaro farqlar orqali hosil bo‘ladi (hech qanday ma’no o‘z-o‘zidan yetarli emas, u boshqa ma’nolardan farqi bilan aniqlanadi); ikkinchidan, ma’no doimo kechikadi, hech qachon to‘liq hozir



bo'lmaydi [18.130-135]. Differance tushunchasi ma'noning statik emas, balki dinamik jarayon ekanligini ko'rsatadi.

Dekonstruktiv tahlil davomida matndagi ichki qarama-qarshiliklar ochib beriladi. Masalan, matn bir fikrni tasdiqlayotgandek tuyulsa-da, yashirin qatlamlarda aynan shu fikrni inkor qiluvchi belgilar mavjud bo'ladi. Dekonstruksiyaning asosiy usuli — bu matndagi ikkilik qarama-qarshiliklarni (binar oppozitsiyalar) topish va ularni “barqarorlashtirish”dir. Derrida an'anaviy falsafada mavjud bo'lgan qarama-qarshiliklarni (masalan, subyekt va obyekt, moddiylik va ruhiyat) dekonstruksiya qilishni taklif qiladi. U bu qarama-qarshiliklarning aslida bir-birini to'ldirishi va bir-biriga bog'liqligini badiiy matn misolida ko'rsatadi [19.67-70].

Dekonstruksiyaning ikki bosqichi mavjud: birinchisi, mavjud ierarxiyani o'zgartirish (reversal), ikkinchisi, muammoni qayta yo'naltirish (displacement). Birinchi bosqichda dekonstruktor ikkilik qarama-qarshilikdagi ierarxiyani (masalan, nutq yozuvdan ustun, erkak ayoldan ustun va hokazo) teskariga o'giradi. Ikkinchi bosqichda esa bu qarama-qarshilikning o'zi barqaror emasligi, uning ikkala tomoni bir-biriga bog'liq va bir-birini inkor etish orqali mavjud ekanligi ko'rsatiladi [20.86].

Dekonstruksiya poetikasi ayniqsa postmodernistik adabiyotda keng namoyon bo'ladi. Bunday asarlarda syujet parchalanadi, vaqt va makon izchil emas, qahramon shaxsiyati noaniq tasvirlanadi. Bu esa an'anaviy badiiy tafakkurning inkori sifatida namoyon bo'ladi.

Modernizm va postmodernizmda inkor poetikasi. Modernizm XX asr boshlarida an'anaviy realizm poetikasiga qarshi yuzaga kelgan estetik yo'nalish sifatida shakllandi. Modernist yozuvchilar inson ongining ichki jarayonlarini tasvirlashga intildilar. Shu sababli ular an'anaviy syujet, voqeabandlik va mantiqiy izchillikdan voz kehdilar [21.58]. Modernizmning inkor poetikasidagi o'rni beqiyos, chunki u birinchi marta realizmning asosiy tamoyillarini (hayotni “haqqoniy” aks ettirish, tipik qahramonni tipik sharoitda ko'rsatish, sabab-natija



bog‘liqligiga asoslangan syujet, muallifning hamma narsani biluvchi pozitsiyasi) jiddiy shubha ostiga oldi.

Modernistik inkorning eng yorqin vakili fransuz yozuvchisi Marsel Prustdir. Uning “Yo‘qotilgan vaqt izidan” (*À la recherche du temps perdu*) romani an’anaviy hikoya qilish usullarini butunlay o‘zgartirdi. Prustda vaqt chiziqli emas, esdaliklar va assotsiatsiyalar orqali harakatlanadi; qahramonlar tashqi harakatlari bilan emas, balki ichki kechinmalari bilan xarakterlanadi; real voqealar ikkinchi darajali ahamiyatga ega. Prust asarlarida ong oqimi (stream of consciousness) usuli qo‘llaniladi, natijada qahramon fikrlarining mantiqsiz, parchalangan, assotsiativ tarzda berilishini anglatadi [22.105].

Franz Kafka, James Joyce, Virginia Woolf kabi ijodkorlar asarlarida inkor poetikasi ruhiy iztirob, absurd va begonalashuv motivlari orqali namoyon bo‘ladi. Kafka asarlarida inson va jamiyat o‘rtasidagi ziddiyat keskinlashadi, biroq muammo yechimsiz qoladi. Kafkaning “Metamorfoza” qissasida bosh qahramon Gregor Samsaning hasharotga aylanishi tom ma’noda real voqea sifatida beriladi hech qanday tushuntirish, hech qanday metaforik kalit berilmaydi [23.48]. Bu esa klassik realizmdagi sabab-natija bog‘liqligi, psixologik motivatsiya va ijobiy yakun tamoyillarining inkoridir.

Postmodernizm esa modernizmning o‘zini ham qayta ko‘rib chiqdi. Postmodernistik adabiyotda haqiqat nisbiy tushuncha sifatida talqin qilinadi. Muallif ovozi zaiflashadi, matn o‘yin xarakteriga ega bo‘ladi. Ironiya, parodiya, sitatalilik, metafiktsiya kabi usullar inkor poetikasining asosiy ko‘rinishlariga aylanadi [24.100]. Postmodernizm modernizmning “yuksak” tamoyillarini (avtonom subyekt, ong oqimi, universal haqiqat) inkor etadi va ular o‘rniga parchalanuvchanlik, nisbiylik, “o‘yin”ni qo‘yadi.

Postmodernizmda “muallif o‘limi” konsepsiyasi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Roland Barthes muallifning matn ustidan mutlaq hukmronligini inkor qiladi. Uning fikricha, matnning haqiqiy yaratuvchisi o‘quvchi hisoblanadi. Shu tariqa



an'anaviy adabiy ierarxiya buziladi [25.145]. Barthesning "Muallifning o'limi" (La mort de l'auteur) nomli maqolasi postmodernistik inkor poetikasining manifestiga aylangan. Barthesga ko'ra, muallif faqat zamonaviy davrning mahsulidir; o'rta asrlarda matnlar anonim edi. Muallifning o'limi bilan matnning tug'ilishi boshlanadi, chunki faqat muallif yo'q bo'lgandagina matn "ko'p ma'nolilik" xususiyatiga ega bo'ladi.

Postmodernizm da tarixga munosabat ham jiddiy o'zgaradi. Tarix endi "buyuk voqealar"ning xronikasi emas, balki "kichik hikoyalar"ning to'plami sifatida qaraladi. Postmodernistik romanda tarixiy shaxslar va voqealar real kontekstidan ajratilgan holda, erkin talqin qilinadi. Umberto Ekoning "Qohl atir nomi", Salman Rushdiyning "Yarim tunning bolalari" kabi asarlar tarixiy haqiqatning parchalangan, nisbiy, "matn" sifatidagi tabiatini ko'rsatadi [26.87-90]. Bu esa XIX asr tarixiy romanining "haqqoniy o'tmishni qayta tiklash" da'vosining inkoridir.

Inkor poetikasining badiiy matndagi ko'rinishlari. Inkor poetikasi badiiy matnda turli darajalarda: til, syujet, qahramon, janr, kompozitsiya va boshqa elementlar orqali namoyon bo'ladi.

Til darajasida inkor poetikasi, avvalo, an'anaviy grammatik va uslubiy qoidalarni buzish orqali namoyon bo'ladi. Modernistik adabiyotda tinish belgilarining tashlab qo'yilishi (James Joyce), sintaksisning buzilishi (Gertrude Stein), yangi so'zlar yaratilishi (neologizmlar) kabi hodisalar keng tarqalgan [27.112]. Bu vositalar tilning "shaffofligi", ya'ni til "voqelikka oyna" vazifasini o'tashi haqidagi an'anaviy qarashni inkor etadi. Postmodernistik adabiyotda esa til o'yinlar, so'z o'yinlari, parodiyalar orqali yanada murakkablashadi. Til endi "ifoda vositasi" emas, balki o'zi badiiy asarning asosiy predmetiga aylanadi.

Syujet darajasida inkor poetikasi an'anaviy "boshlanish, rivojlanish, avj nuqtasi, yechim" formulasini buzadi. Zamonaviy asarlarda syujet ko'pincha fragmentar, chiziqsiz, aylanma xarakterga ega bo'ladi. Vaqt ketma-ketligi buziladi, sabab-natija munosabatlari noaniqlashadi. Ko'plab postmodernistik asarlarda



syujetning o‘zi “o‘lik” deb e‘lon qilinadi hech qanday yakuniy yechimga olib kelmaydigan hodisalar zanjiri tasvirlanadi [28.67]. Samuel Bekketning “Godoni kutib” asarida butun spektakl davomida hech qanday voqea sodir bo‘lmaydi bu drama janridagi eng radikal inkordir.

Qahramon darajasida inkor poetikasi “psixologik jihatdan rivojlangan”, “tabiiy”, “real” qahramon modelidan voz kechishni anglatadi. XX asr adabiyotida qahramon ko‘pincha:

- a) parchalangan (split) bir necha qarama-qarshi “men”lardan tashkil topgan;
- b) “ochiq” psixologiyasi noaniq, o‘zgaruvchan;
- v) “nomuvofiq” harakatlari mantiqqa to‘g‘ri kelmaydigan;
- g) “o‘lik” yoki “robot” his-tuyg‘ularidan mahrum bo‘lgan;
- d) “antiqahramon” an’anaviy qahramonlik xususiyatlarining teskarisi sifatida

tasvirlanadi [29.48]. Antiqahramon tipi Kafka, Sartr, Kamyu, Miller va boshqa ko‘plab ijodkorlar asarlarida keng qo‘llanilgan.

Janr darajasida inkor poetikasi janrlarning aralashishi, bir janrning ikkinchi janr doirasida “parodiyalanishi”, an’anaviy janr chegaralarining buzilishi orqali namoyon bo‘ladi. Postmodernizm da “hybrid genre” (aralash janr) hodisasi keng tarqalgan detektiv va falsafiy roman (Eko), avtobiografiya va tarixiy roman (Barns), she‘r va nasr (Woolf, Joyce) aralashmasi [30.80]. Janrlarning bunday aralashuvi klassik poetikaning “sof janr” tamoyilini inkor etadi.

Kompozitsiya darajasida inkor poetikasi matnning fragmentarliligi, “ochiq yakun”, “aylanma kompozitsiya”, “matn ichida matn” (mise-en-abyme) kabi usullar orqali namoyon bo‘ladi. Postmodernistik romanlarda ko‘pincha asar boshida boshlangan voqea asar oxirida ham yakunlanmaydi, yoki yakunlanib, yana “qayta boshlanadi”. Italo Kalvinoning “Agar bir kecha sayohatchi” asarida har bir bob boshqa romanning boshi bo‘lib, hech qaysisi oxirigacha yozilmagan bu an’anaviy roman kompozitsiyasining radikal inkoridir [31.95].

O‘zbek adabiyotida inkor poetikasi unsurlari



O‘zbek adabiyotida ham inkor poetikasi turli davrlarda namoyon bo‘lib kelgan. Jadid adabiyoti eski ijtimoiy va madaniy qarashlarni inkor etish asosida shakllandi. Abdulla Qodiriy, Cho‘lpon, Fitrat kabi ijodkorlar asarlarida eski dunyoqarash, jaholat, madaniy qoloqlik tanqid qilindi [32.112]. Jadid adabiyotining inkor xarakteri ikki tomonlama edi: bir tomondan, ular eski an’anaviy adabiyotni (xususan, xalq dostonlari, saroy she’riyati, diniy adabiyot) “milliy uyg‘onish” nuqtai nazaridan tanqid qildilar; ikkinchi tomondan, rus va g‘arb adabiyotiga taqlid qilishni ham inkor etib, o‘ziga xos “milliy modernizm”ni yaratishga intildilar [33.45].

Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romani o‘zbek nasrida yangi davrni boshlab berdi. Ushbu roman an’anaviy sharq dostonchiligining soddalashtirilgan qahramonlar modelini inkor etib, murakkab psixologik xarakterlar yaratdi. Roman syujeti an’anaviy “yaxshi yomon” qarama-qarshiligi asosida emas, balki ijtimoiy va shaxsiy ziddiyatlarning murakkab uyg‘unligi asosida qurilgan [34.67].

Mustaqillik davri adabiyotida inkor poetikasi yanada murakkablashdi. Zamonaviy o‘zbek nasri va she’riyatida insonning ichki yolg‘izligi, ruhiy parchalanishi, ijtimoiy begonalashuvi kabi motivlar kuchaydi. Ayniqsa, modernistik va postmodernistik yo‘nalishdagi asarlarda an’anaviy badiiy shakllarning buzilishi kuzatiladi. Ulug‘bek Hamdam, Isajon Sulton, Shukur Xolmirzayev, Nazar Eshonqul kabi ijodkorlar asarlarida inkor poetikasining turli ko‘rinishlarini kuzatish mumkin [35.23].

Ulug‘bek Hamdamning “Muvozanat” romani o‘zbek nasrida postmodernistik tajriba sifatida e’tirof etilgan. Romanda vaqt va makonning chiziqsizligi, qahramon shaxsiyatining parchalanganligi, intertekstuallik, metafiktsiya kabi usullar qo‘llanilgan. Roman an’anaviy o‘zbek romanidagi monologik muallif ovozini inkor etadi va o‘rniga ko‘p ovozli, polifonik strukturani taklif qiladi [36.80].

O‘zbek she’riyatida ham inkor poetikasi kuchli namoyon bo‘lmoqda. An’anaviy aruz vazni va qofiya tizimidan voz kechish, erkin she’r (vers libr)



usulining keng qo'llanilishi, she'rdan nasriy elementlarning kiritilishi bularning barchasi klassik she'riyat me'yorlarining inkoridir [37.48].

Ko'rinadiki, inkor poetikasi adabiyot taraqqiyotining muhim estetik qonuniyatlaridan biri hisoblanadi. U mavjud poetik tizimlarni rad etish orqali yangi badiiy tafakkur shakllanishiga xizmat qiladi. Dialektika (Hegel), dialogizm (Baxtin), intertekstuallik (Kristeva), dekonstruksiya (Derrida), modernizm va postmodernizm nazariyalari inkor poetikasining ilmiy asoslarini tashkil etadi.

Inkor poetikasi adabiy jarayonning ichki mexanizmi bo'lib, avvalgi estetik qarashlarni oddiy rad etish emas, balki Hegel ta'riflagan aniq inkor orqali yangi shakllarni yuzaga keltiradi. Baxtin dialogizmi har bir matnning oldingi matnlar bilan bahsga kirishishini, Kristeva intertekstualligi esa yangi matnning avvalgi matnlarni o'zgartirib o'zlashtirishini ko'rsatadi. Derrida dekonstruksiyasi matndagi ma'nolarning beqarorligini va matnning markazsizligini ochib beradi. Modernizm realizmning ob'ektiv voqelikni aks ettirish tamoyilini inkor etib, subyektiv idrok va ong oqimiga murojaat qilgan bo'lsa, postmodernizm modernizmning o'zini inkor qilib, "muallif o'limi", "intertekstuallik" va "o'yin"ni adabiyotning asosiy tamoyillariga aylantirdi.

Inkor poetikasi nafaqat adabiyot tarixi va nazariyasi, balki zamonaviy madaniy jarayonlarni tushunish uchun ham muhim ahamiyatga ega, chunki har bir yangi avlod o'z estetik qarashlarini shakllantirishda avvalgi tajribalarni inkor etishga majburdir. O'zbek adabiyoti kontekstida inkor poetikasi g'arbdagi modellardan mutlaqo farqli bo'lmas-da, milliy an'analar, islomiy qadriyatlar va sharq dunyoqarashi bilan uyg'unlashgan holda o'ziga xos shakllarda namoyon bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Hassan I. *The Postmodern Turn: Essays in Postmodern Theory and Culture*. – Ohio: Ohio State University Press, 1987. – 267 p.



2. Гегель Г.В.Ф. *Феноменология духа*. – Ташкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2020. – 352 б.
3. Bradbury M., McFarlane J. (eds.). *Modernism: A Guide to European Literature 1890–1930*. – London: Penguin Books, 1991. – 320 p.
4. Lyotard J.-F. *The Postmodern Condition: A Report on Knowledge*. – Minneapolis: University of Minnesota Press, 1984. – 240 p.
5. Hegel G.W.F. *Science of Logic*. – London: Routledge, 2002. – 450 p.
6. Маркс К., Энгельс Ф. *Немецкая идеология*. – Ташкент: Гафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1988. – 356 б.
7. Nietzsche F. *Also sprach Zarathustra*. – Tashkent: Yangi asr avlodi, 2001. – 248 б.
8. Jameson F. *Postmodernism, or, The Cultural Logic of Late Capitalism*. – Durham: Duke University Press, 1991. – 320 p.
9. Bakhtin M. *Problems of Dostoevsky's Poetics*. – Minneapolis: University of Minnesota Press, 1984. – 340 p.
10. Hutcheon L. *A Theory of Parody: The Teachings of Twentieth-Century Art Forms*. – Urbana: University of Illinois Press, 2000. – 280 p.
11. Bakhtin M. *Rabelais and His World*. – Bloomington: Indiana University Press, 1984. – 520 p.
12. Kristeva J. *Desire in Language: A Semiotic Approach to Literature and Art*. – New York: Columbia University Press, 1980. – 320 p.
13. Kristeva J. *Semeiotikè: Recherches pour une sémanalyse*. – Paris: Éditions du Seuil, 1969. – 298 p.
14. Joyce J. *Ulysses*. – Paris: Shakespeare and Company, 1922. – 740 p.
15. Kristeva J. *Revolution in Poetic Language*. – New York: Columbia University Press, 1984. – 280 p.
16. Barthes R. *Image–Music–Text*. – New York: Hill and Wang, 1977. – 280 p.



17. Derrida J. *Of Grammatology*. – Baltimore: Johns Hopkins University Press, 1976. – 380 p.
18. Derrida J. *Margins of Philosophy*. – Chicago: University of Chicago Press, 1982. – 450 p.
19. Derrida J. *Writing and Difference*. – Chicago: University of Chicago Press, 1978. – 370 p.
20. Culler J. *On Deconstruction: Theory and Criticism after Structuralism*. – Ithaca: Cornell University Press, 1982. – 320 p.
21. Armstrong T. *Modernism: A Cultural History*. – Cambridge: Polity Press, 2005. – 300 p.
22. Humphrey R. *Stream of Consciousness in the Modern Novel*. – Berkeley: University of California Press, 1954. – 240 p.
23. Sokel W.H. *The Myth of Power and the Self: Essays on Franz Kafka*. – Detroit: Wayne State University Press, 2001. – 380 p.
24. Hutcheon L. *A Poetics of Postmodernism: History, Theory, Fiction*. – London: Routledge, 1988. – 380 p.
25. Barthes R. “The Death of the Author” // *Image–Music–Text*. – New York: Hill and Wang, 1977. – P. 140–148.
26. Eco U. *The Name of the Rose*. – London: Secker & Warburg, 1983. – 512 p.
27. Stein G. *Tender Buttons*. – New York: Claire Marie, 1914. – 120 p.
28. Beckett S. *Waiting for Godot*. – Paris: Les Éditions de Minuit, 1952. – 150 p.
29. Sartre J.-P. *La Nausée*. – Paris: Gallimard, 1938. – 280 p.
30. Barnes J. *Flaubert’s Parrot*. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2018. – 256 b.
31. Calvino I. *If on a Winter’s Night a Traveler*. – Turin: Einaudi, 1979. – 280 p.



32. Қосимов Б. *Миллий уйғониш: маърифат, жадиҳчилик, миллий мустақиллик*. – Тошкент: Маънавият, 2002. – 316 б.
33. Каримов Н. *XX аср ўзбек адабиёти тарихи*. – Тошкент: Ўзбекистон, 2010. – 248 б.
34. Қодирий А. *Ўткан кунлар*. – Тошкент: Фафур Гулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2018. – 480 б.
35. Намдам У. “Postmodernizm va o‘zbek nasri” // *Jahon adabiyoti*. – 2015. – №3. – В. 22–28.
36. Намдам У. *Muvozanat*. – Toshkent: Akademnashr, 2018. – 312 б.
37. Jo‘rayev М. “O‘zbek she‘riyati va modernizm” // *O‘zbek tili va adabiyoti*. – 2020. – №2. – В. 42–50.